

KO`ZIDA MUAMMOSI BO`LGAN BOLALARNI INFORMATIKA FANIDA O`QITISHNING O`ZIGA XOS USULLARI

Maxmurzayeva Naira Raximovna

*77-sonli “NURLI MASKAN” Ixtisoslashtirilgan
maktab-internati matematika va informatika o`qituvchisi*

Annotatsiya: Bugungi kunning talabi – o`sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama yetuk, barkamol shaxs qilib tarbiyalashdan iborat. Ushbu maqolada ko`zida muammosi bo`lgan zaif ko`rvuchi yoki total ko`r o`quvchilar ham informatika fanida kompyuterda ishlash orqali bilim, malaka va ko`nikma sifatlarini shakllantirishni amalga oshirishni, y’ani informatika fanida o`quvchilarga boshlang`ich tushunchalarni berish orqali ularning bilim va malakalarini shakllantirib borish ko`zda tutilgan. Shuningdek, o`quvchilar o`rtasida kompyuter savodxonligini keng targ`ib qilishdan iborat.

Kalit so`zlar: Informatika faniga oid dastlabri tushunchalar, berilgan topshiriqlarni bajarishda “JAWS” yoki “NVDA” ovozli dasturlari yordamida turli pedagogik texnoloriya va metodlarni qo`llab vazifalarni bajarishga harakat qilish.

XXI asr – texnika taraqqiyoti asri bo`lishi, bu ma’lum ma’noda ko`zida muammosi bo`lgan zaif ko`rvuchi yoki total ko`r bolalarda ham informatika fanida kompyuterda ishlash orqali bilim, malaka va ko`nikma sifatlarini shakllantirishni amalga oshirishni ko`zda tutadi. Bugungi kunning talabi – o`sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama yetuk, barkamol shaxs qilib tarbiyalashdan iborat. Har bir davlat, jamiyat taraqqiyoti, uning istiqboli shu mamlakatda yashovchi fuqarolarning aqliy saviyasi bilan belgilanadi.

O`zbekiston o`z mustaqilligining dastlabki kunlaridanoq Yurtboshimizning bevosita g`amxo`rliklari bilan sog`lom avlodni shakllantirish va ularni barkamol inson qilib tarbiyalash masalalariga jiddiy e’tibor qaratdi. Shu o`rinda aytish joizki, butun dunyo miqyosida bo`lgani kabi, mamlakatimizda ham nogironlik muammolari mavjud.

Ixtisoslashtirilgan ko`zi ojizlar maktab-internatida Respublikamizning turli viloyatlaridan kelgan ko`zida nuqsoni bo`lgan o`quvchilar o`qiydilar. O`quvchilar har bir fanga qiziqadilar. Iqtidorli o`quvchilar ona tili, adabiyot kabi fanlardan o`tkazilgan musobaqalarda qatnashib faxrli o`rnlarni egallab kelmoqdalar. Shu bilan birga, o`quvchilarning informatika faniga bo`lgan qiziqishlari ham kuchli. Hatto bu 8 – , 9 – , 10 – sinflarda tahsil olayotgan total ko`r o`quvchilar orasida ham fanni astoydil sevib, o`z ustilarida ko`proq ishslash va izlanishlar orqali uni chuqur o`zlashtirish darajasiga yetkazishga intiluvchi o`quvchilar soni juda ko`p.

Darsning samaradorligini oshirish, uni turli pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish o`qituvchining iste`dodiga bog`liq. O`quvchilar berilgan topshiriqlarni kompyuterda bajarishda “JAWS” yoki “NVDA” ovozli dasturlari yordamida vazifalarni bajarishga harakat qiladilar. O`quvchilar klaviaturadagi barcha tugmalarni to`liq yod olganlar. Harflar ketma-ketligini, funksional klavishlarni va uning vazifalarini, belgi, simvol, sonlarning turgan o`rnini yoddan biladilar. Bu esa kompyuterda ishlash jarayonida qiyinchilik tug`dirmaydi. “JAWS” yoki “NVDA” dasturlari bevosita o`quvchilarga yaqindan yordamchi bo`lib xizmat qiladi, ya`ni bu dasturlar o`qituvchining bajarayotgan ishlari haqida ovoz orqali axborot berib turadi. Natijada ushbu dasturlar orqali o`quvchilar yo`l qo`ygan xatoliklarini to`g`rilab, berilgan vazifani xatosiz bajarishga harakat qiladilar.

Darsning nazariy qismida o`quvchilarning bilish faoliyatidan kelib chiqqan holda “Soddadan murakkabga” pedagogik texnologiyasining qo`llanilishi ijobiy natija beradi. Ma`lumki, sinfdagi o`quvchilarning o`zlashtirish darajasi turlicha. Shu sababli ular guruhlarga bo`linadilar va topshiriqlar oladilar. Bu uslub o`qituvchining darsga bo`lgan qiziqishlarini oshiradi, o`ziga bo`lgan ishonchni kuchaytiradi va darsga bo`lgan ishtiyoqini kuchaytiradi.

Pedagogik texnologiyaning “Zinama-zina” metodini qo`llash ham samarali natija beradi. Masalan: bu metod orqali 1-darsda o`quvchiga jadval tuzish beriladi. Keyingi darsda jadvalni ichini to`ldirish tavsiya etiladi. Avval bir o`lchovli jadval tuzish va uni to`ldirish, so`ngra ikki va undan ko`p o`lchovli jadval tuzish va uni to`ldirish topshiriqlarini berish mumkin. Jumladan, o`quvchilarga dars jadvalini tuzish, oila a`zolari haqida ma`lumotni yozma ravishda berish kabi topshiriqlarni berish mumkin.

Kichik guruhlarda ijodiy izlanishni tashkil etish metodini qo`llashda ko`proq o`quvchilarning mustaqil va ijodiy ishiga e`tibor qaratiladi. Bunda kichik guruhdagi o`quvchilar mavzu yuzasidan o`zaro bir-birlariga savollar berishi va agar lozim topsa, javobni raqib guruh to`ldirib borishi darsni yanada jonli o`tishiga sabab bo`ladi. Natijada, o`quvchilar o`z ustida ijodiy izlanishga, hamda ularning darsga bo`lgan e`tiborini kuchayishiga erishiladi.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida aytib o`tilgan metodlarni darsda qo`llanilishi darsning samaradorligini oshiradi, o`quvchilarning darsga bo`lgan qiziqishlarini kuchaytiradi, o`z ustida ishlashga o`rgatadi. O`quvchilar egallagan tajriba va bilimlariga tayangan holda bir-birlariga savollar berishga o`rganadilar. Berilgan savollarni to`ldirish kabi jarayonlarni puxta egallaydilar. Darsning sermazmun va qiziqarli tashkil etilishi ko`zida nuqsoni bor o`quvchilarni faollashtiradi hamda ularni hayotga ishonch bilan qarashga, xuddi sog`lom o`quvchilar kabi mustaqil qadam tashlashga o`rgatadi.

Shuningdek, hozirgi yoshlarimizni har jihatdan mukammal, barkamol, keng dunyoqarashga, ijodiy tafakkur, intellectual salohiyatga ega bo`lgan shaxslar etib

tarbiyalashimiz zarur. Shuning uchun 77 – sonli “Nurli maskan” Ixtisoslashtirilgan ko`zi ojizlar maktab-internati ma’muriyati, o’qituvchi va tarbiyachilarning eng asosiy vazifasi jamiyatga bilimli, har tomonlama yetuk insonni tarbiyalab yetishtirishdan iborat. O`quvchilarni mакtabni tamomlab, oliygohlarda o`qishlarini davom ettirib, hayotda o`z o`rinlarini to`g`ri topishga, jamiyatga foydasi tegadigan yetuk insonni voyaga yetkazib berish uchun ko`maklashishga qaratilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. SH. M. Mirziyoyev “2017-2021 yil Harakatlar strategiyasi”
2. Ochilova G.O., Musaxonova G.M. “Pedagogika”. TDIU, 2005 yil
3. N. Xo`jayev va boshqalar “Pedagogika asoslari” Toshkent., “TDIU”2003 y.
4. Педагогика профессионального образования. Под. ред. В.А.Сластенина.
Москва «Академия».2004 йил
5. Мавлонова Р. ва бошқалар “Педагогика” Тошкент 2003 йил
6. [www. inter – pedagogika. ru](http://www.inter-pedagogika.ru).

